

**“2022-2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING
TARAQQIYOT STRATEGIYASI”DA BELGILANGAN JAHON SAVDO
TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISH MAQSADI MOHIYATI**

Absamatov Mirodil

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti

Xalqaro munosabatlar yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Email: mirodilabsamatov1404@gmail.com

Tell: +998957011420

Anotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda Jahon savdo tashkilotiga a’zolik doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, bu tashkilotning O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun foyda keltiradigan jihatlari yoritiladi.

Kalit so`zlar: “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”, “Harakatlar strategiyasi”, Jahon savdo tashkiloti, Maxsus vakil, Idoralararo komissiya, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan bo`lib, 29-yanvar kunidan kuchga kirgan. Strategiya umumiy yetti bobdan iborat bo`lib, yettinchi “Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish” deb nomlangan bobi aynan yurtimiz tashqi siyosati bilan bog`liqdir. Bu bob 89-100-maqсадларни о‘з ichiga olgan bo`lib, ularning ichida **97-maqсад:** *Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish* alohida ahamiyatlidir. Xususan, JST ga a`zo bo`lish uchun iqtisodimizni qayta tartibga solish ishlari olib borilmoqda. Bunga doir qonun, qaror va normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, a`zolik bo`yicha a`zo mamlakatlar bilan muzokaralar olib borilmoqda. Bu tashkilotga a`zolik O‘zbekistonni dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga va savdoning yanada ochiq, erkin va shaffof bo`lishiga olib kelishi kutilmoqda.

1995-yil 1-yanvarda tashkil etilgan Jahon savdo tashkiloti davlatlararo ko‘p tomonlama savdo tizimini muvofiqlashtirib turuvchi xalqaro tuzilma hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoda ushbu iqtisodiy tashkilotga 164 mamlakat a’zo va ular hissasiga global savdo va jahon yalpi ichki mahsulotining 98 foizi to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston tovar aylanmasining 97 foizi ushbu a’zo davlatlarning birgalikdagi ulushini tashkil etadi. Tashkilotga a’zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo‘lgan umumiy vazifalar belgilangan. Uning asosiy vazifalari: *global iqtisodiyotni kuzatish orqali xalqaro savdo izchilligi va shaffofligini tartibga solish, a’zo mamlakatlar barqaror taraqqiyotini ta’minlash va insonlar turmushini yaxshilash*. Bu O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va maqsadlarga to‘liq mos keladi.

O'zbekiston bu nufuzli tashkilotga a`zo bo`lish to`g`risidagi arizani 1995-yilda bergen. Hattoki, ishchi guruhlarning 3 ta majlisida ham ishtirok etgan. Biroq keyinchalik ayrim sabablarga ko`ra a`zo bo`lish bo`yicha faoliyat to`xtab qoldi va 2017-yildan keyin yana qayta tiklandi. Xususan, 2019-yildan boshlab hukumat ishchi guruh faoliyatini qayta jonlantirdi, 2020-yildan esa ishchi guruh majlislari qayta tashkillashtirila boshlandi. 2023-yil 2-iyun kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "*O'zbekiston respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a`zo bo`lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to`g'risida*"gi PQ-181-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda aniq maqsad va vazifalar belgilandi. Unda Jahon savdo tashkiloti bilan ishslash bo`yicha idoralararo komissiya tarkibi belgilab berildi. Idoralararo komissiya rahbari etib O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rribbosari *Jamshid Xodjayev* tayinlandi. Idoralararo komissiya rahbarining asosiy vazifalari JSTga a`zo mamlakatlar bilan bozorga kirish bo`yicha O'zbekiston Respublikasining pozitsiyasini aniq belgilab berish, muzokaralar jarayonida tashqi savdo rejimini tarif va notarif choralar orqali o`zgartirish bo`yicha qarorlar qabul qilish, milliy qonunchilikni JST me`yorlariga muvofiqlashtirish bo`yicha vazirliklar va idoralar tomonidan tayyorlangan takliflarni ko`rib chiqish va milliy qonunchilikka joriy qilish bo`yicha qarorlar qabul qilish, Jahon savdo tashkiloti bilan ishslash bo`yicha muzokaralar guruhining muzokaralar o`tkazishini ta'minlash hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining JST masalalari bo`yicha maxsus vakili lavozimi joriy etildi. Maxsus vakil bir vaqtning o`zida Komissiya raisining o'rribbosari hamda muzokaralar guruhi rahbari — bosh muzokarachi hisoblanadi. Bu lavozim egasi hozirda Aziz Urunkov hisoblanadi. Maxsus vakilning vazifalari JSTga a`zo bo`lish jarayonlarining jadallashtirishini muvofiqlashtiradi, muzokaralar o`tkazishga puxta hamda har tomonlama tayyorgarlik ko`radi, tashkilotga a`zo davlatlar ishchi vakillari bilan doimiy aloqalarni o`rnatadi. O'zbekistonning JSTga a`zo bo`lish bilan bog`liq tadbirlarni amalga oshirish uchun 2023-yilda Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg`armasi hisobidan 10 mlrd so'm va Eksportni rag`batlantirish agentligiga ko`zda tutilgan mablag`lar doirasida 20 mlrd so'm mablag` ajratildi.

JSTga a`zo bo`lish uchun uning shartlarini qabul qilishimiz va iqtisod va sanoatimizga tatbiq etishimiz zarur. Tashkilotning asosiy shartlaridan biri milliy qonunchilikni tashkilot bitim va qarorlariga muvofiqlashtirish hisoblanadi. Ushbu vazifa yuzasidan Adliya vazirligida alohida 5 shtat birligini miqdorida guruh shakllantirilgan. Ushbu guruhning asosiy vazifasi milliy qonunchilik bazasini tashkilot bitimlari va me`yorlariga qay darajada mos ekanligini o`rganish va o`zgartirilishi kerak bo`lgan hujjatlarga o`zgartirish kiritish bo`yicha tegishli vazirlikka takliflar kiritish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, konstitutsiyaviy islohotlar vaqtida 67-moddaga yangi bir o`zgarish kiritildi:

"Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy, mablag`larning

erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi”.

Ko`rinib turibdiki, ushbu moddada monopol faoliyat qat`iy cheklanishi va tartibga solinishi belgilangan. Chunki, JSTga a`zo bo`lish uchun barcha uchun teng imkoniyatlар yaratilgan raqobatbardosh bozor shakllantirilishi lozim. Shuningdek, tashkilotga a`zo davlatlar bilan o`zaro savdo qilayotganda, ochiqlikni ta`minlash lozim. Yuqorida ko`rib o`tilgan shartlarni joriy etish uchun JSTga a`zo davlatlar bilan umumiy konsensusga kelish kerak. Qarorda belgilanganidek, O`zbekistonda ishchi guruh faoliyati tiklanganidan so`ng a`zo davlatlar bilan muzokaralar tez-tez o`tkazila boshlandi. Xususan, o`tgan 2023-yil 16-noyabrda Jenevada JSTga a`zolik bo`yicha ishchi guruhning 7-yig`ilishi bo`lib o`tdi. O`zbekiston Turkiya, Mo`g`uliston va Saudiya Arabistoni bilan Jahon savdo tashkilotiga qo`shilish bo`yicha muzokaralarni yakunlab, tegishli bayonnomalarni imzoladi. Natijada, a`zolik jarayonida yakuniy kelishuvga erishilgan davlatlar soni beshtaga yetdi: Gruziya, Nigeriya, Turkiya, Mo`g`uliston va Saudiya Arabistoni. Umuman olganda, 30 ta a`zo davlat O`zbekiston bilan a`zolik bo`yicha muzokara olib borishga rozi bo`lgan.

Yuqorida ko`rib chiqilgan qonun va amalga oshirilgan ishlardan ko`rinib turibdiki, O`zbekistonning JSTga a`zo bo`lish maqsadi qat`iy va orqaga qaytmas jarayondir. Chunki, JSTga a`zolik tufayli Respublikamizda juda katta ijobiy o`zgarishlar yuzaga keladi. Ularni sanab o`tsak, birinchi navbatda, iqtisodiy taraqqiyotga kuchli turtki beriladi, yangi sarmoyalar asosida qo`srimcha ish o`rnlari yaratiladi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulot sifatini oshirib, dunyo bozoridagi kuchli raqobatga ko`nikadi. O`z navbatida, iste`molchilarining arzon va sifatli tovarlar hamda xizmatlarni tanlash imkoniyati yuzaga keladi. Bundan tashqari, davlatimizning jahon siyosatidagi o`rni yuqorilaydi. Chunki, a`zolik tufayli mamlakatimiz tashkilot majlislarida o`z ovoziga ega bo`ladi. Bojxona ma`muriyatiligi va qonunchilik bo`yicha institutsional islohotlar amalga oshiriladi, tizimdagи korrupsiya darajasini kamaytirishga ko`mak beriladi, dunyo miqyosidagi ilmiy-texnik rivojlanish jarayoniga integratsiyalashuv tezlashtiriladi. Qo`srimcha ravishda, a`zo davlatlar bilan yuritilgan savdoda ko`plab yengilliklarga erishiladi. Xususan, bojxona ta`riflari yengillashadi va ba`zi bir savdo to`siqlarida imtiyozga ega bo`linadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844604>
2. <https://yuz.uz/uz/news/jst-ozbekistonga-nima-beradi>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/15/wto-eaeu-uzbekistan/>
4. <https://xs.uz/uz/post/zahon-savdo-tashkilotiga-azolik-ozbekistonga-nima-beradi>
5. <https://president.uz/oz/lists/view/6379>
6. <https://dairynews.today/uz/news/uzbekistan-eaes-arkhitektura-vzaimovygodnykh-otnosh.html>
7. <https://daryo.uz/2023/12/18/jahon-savdo-tashkilotiga-azo-bolsak-monopolistlarni-yoq-qilishimiz-mumkin-iqtisodiy-tahlilchi>